

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI FAKUL'TETI

BTN VA A KAFEDRASI

Referat

**MAVZU: 4-SINFDA TENGLAMALARNI YAPT
ASOSIDA O'RGANISH**

Bajaruvchi: 4-kurs talabasi Alimova N

JIZZAX - 2013 YIL

Reja

Kirish

- 1.Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati
- 2.To'rtinchi sinfda tenglamalar tuzib echiladigan masalalarni YAPT asosida o'qitish
3. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tilgan bir soatlik dars ishlanmasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Boshlang'ich sinflarda xususan IV sinfda masalalar ustida ishlash, ko'paytirish va bo'lishga, bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga teng bo'laklarga bo'lishda, soni bir necha marta orttirishga, sonlarni qisqa taqqoslashga, amallarning noma'lum komponentini topishga doir har xil soda masalalar, shuningdek har xil ko'rinishdagi murakkab masalalar keltiriladi.

Har xil turdagi masalalarni echish amallar ma'nosini ochib berish u yoki bu tushuncha munosabatlarining shakllanishidan tashqari o'quvchilar bilim doiralarining kengayishiga ba'zi kattaliklar va ular orasidagi bog'lanishlar bilan chuqurroq tanishtirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar masalalar echishga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma'lum bog'lanishlarni tushungan holda topishga o'rgatish kerak.

Masalalar echish malakasini hosil qilishda masalani taxlil qilishning umumiy metodini o'quvchilar qanday egallab olganliklarini va bolalar o'zlari mustaqil masala echimini topishlariga yordam beradigan vositalarni qanday o'zlashtirganliklari muhim ahamiyatga ega.

Bu vositalar masala shartini bir vaqtda analiz qilib qisqa yozish, echish rejasini tuzish echimining tegishli og'zaki yoki yozma tushintirishlari bilan yozish, echimning to'g'riligin tekshirishdan iborat. SHunday qilib, masalalar ustida ishlanganda o'quvchi faqat u yoki bu xil masalani echish malakasini shakllantiruvchi xususiy malakalarni rejali ravishda ishlab chiqilishi borasida g'amxo'rlik qilish kerak. Chunki masala echishning umumiy murakkab malakasi (ya'ni masalani echish rejasini tuzish) asosiy ahamiyatga ega. Masalani taxlil qilish nimani va nima bilan qanday ketma-ketlikdaligini bilish; har bir bosqichda qancha miqdorda va qanday arifmetik amallar bajarilishini bilish demakdir.

1.Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi va uning ahamiyati.

Zamonaviy ta'lim tizimi, fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborot bilan muntazam ravishda boyitib borishni talab etmoqda. Jamiyatning intellektual salohiyatiga mos kelajak. Avlodni tarbiyalash ham bu boradagi muhim muammolardan iborat bo'lib, ularning echimini topish esa "XXI asr intellektual asr"ning faol ishtirokchisini tarbiyalash kabi istiqbolli natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Bugungi kunda ta'lim metodlari, usullari va texnologiyalarni zamon bilan hamnafas bo'lib kengayib bormoqda. Bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarini qamrab oluvchi kompleks bilimiga ega bo'lishi uchun har qanday xalq ta'limi tizimi hodimining ham qobiliyati etarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda, albatta, ta'lim-tarbiya jarayoni haqidagi ma'lumotlar, axborotlashtirish texnologiyalari haqidagi bilimlar banki katta imkoniyatlarni qo'lga kiritishga sharoit yaratib beradi.

Kelajakda nafaqat bilimlar banki, balki ta'lim tizimini egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ham jaxon ta'lim andozalari talablariga javob berishligini ham ta'minlamog'i lozim.

Xalq ta'limi tizimi oldiga qo'yilayotgan qator talablar bugungi kunda davlat siyosatiga aylanadi. SHu sababli ham ta'limni texnologiyalashtirish va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kundagi ilmiy tadqiqot ishlarimiz diqqat markazida bo'lib qoldi. Bu borada

dastlab ta'limni axborotlashtirish va texnologiyalashtirishga oid ba'zi tushunchalarga qisqacha izoh beraylik.

Usul – nazariyada olgan bilimni amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni hal qilishdagi ishlatish yo'li o'rganiladigan fanning xususiyatiga qarab usullar turli xil bo'ladi.

Uslubiyat – o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidir.

Metod – avvalo, u jarayon bo'lib, bilish yo'lidir. U biror jarayondagi nazariya va amaliy bilimlar sohasini egallashga yo'naltirilgan harakatlar, usullar majmuasidan iborat.

Metodologiya – metodlar haqidagi ma'lumot. Metodologiya muayyan fan uchun ilmiy bilish nazariyasini ifodalovchi ta'limotdir. Ta'lim metodologiyasi aniq bir o'quv predmetini o'qitishda mos qonun, qoida uslublar majmuasidir. Bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyati uyg'unligini ta'minlovchi pedagogik faoliyatidir.

Texnologiya so'zi 1872 yillarda fanga kirib kelgan. Texnologiya so'zi zamirida rejalashtirilgan jarayonlarni amalga oshirish usul va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek manbadan sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari mujassamlashgan bo'ladi.

Texnologiya jarayonlariga qarab quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- san'at texnologiyasi (oziq-ovqat texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi va shu kabilar);
- kitob chop etish texnologiyasi;
- ta'lim texnologiyasi (o'quv jarayoni texnologiyasi. YAPT, ART va shu kabilar) ;

- axborot texnologiyasi (YAPT va shu kabi ko'pgina ko'rinishlari mavjud).

Pedagogik texnologiyaga Yunesko ta'rifi:

Ta'rif: Pedagogik texnologiya ta'lim berish va o'zdashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib bilimlar o'zlashtirish eng maqbul jarayondir.

Pedagogik texnologiyaning bosh muammosi talaba (o'quvchi) shaxsini rivojlantirish yo'li bilan o'qitishga qo'yilgan maqsadga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiya borasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritm, ijodiy evristik harakterdagi darajalari mavjud. Boshlang'ich harakterdagi daraja o'quvchining eshitganlari, ularga berilgan namunalar tadqiq etilgan algoritm va ko'rsatmalar asosida topshiriqlar bajarish ko'nikmasini ifodalaydi. Algoritm harakterdagi daraja bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbqiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni echa olish, yozib olish, va eslab qolish faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalarni turli hollarda tadbqiq eta olish mahorati bilan harakterlanadi. Evristik harakterdagi daraja o'quv masalalarni echa olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalari turli holatda tadbqiq eta olish mahorati bilan harakterlanadi. Evristik harakterdagi daraja o'quv masalalarni echish yo'llarini izlash hamda bu muammolarni echish uchun yangi axborotlarni izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan harakterlanadi.

Ta'lim texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi bir necha darajalarda oydinlashtiradi.

Birinchi - ta'lim muassasasining maqsadi hamda pedagog va uning metodik faoliyati idektifikatsiyasi.

Ikkinchi - o'quv predmetining maqsadi, pedagog va uning metodik faoliyati idektifikatsiyasi.

Uchinchi – ushbu modelining bir necha darajalarda oydinlashadi maqsadi va uning o'quvchi – talabalar faoliyatidagi idektifikatsiyasi.

Endi YAPT tushunchasi bayoniga o'taylik. YAPT ning an'anaviy darslardagi maqsad aniqlanib olinadi va dars jarayoni aniq qilib rejalashtiriladi hamda qo'yilgan maqsadga muvofiq holda ta'lim texnologiyalari ichidan katta ma'suliyat va ilmiy uslubiy salohiyat talab etadi.

Albatta, tanlangan ta'lim texnologiyasidan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarga javob berishi qat'iy talab etiladi. YAPT ning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, bunda ta'lim va tarbiya jarayonlari deyarli birga olib boriladi.

Demak, YAPT – ta'lim maqsadlarini aniqlab, o'quv jarayoni rejasini tuzib ularni joriy etish yordamida ta'lim samaradorligini oshiruvchi ta'minlovchi o'quv jarayonini optimal boshqaruvini o'z ichiga olgan yagona tizimdir.

YAPT da ko'pincha quyidagi metodlar qo'llaniladi:

1. Izohli – ilyustratsiya metallardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etiladi.

2. Reproduktiv – tafakkur faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan holdagi ta'lim jarayoni – bunda darsni bayon qilish jarayoni algoritmik harakterda bo'ladi.

3. Produktiv – bu metod unumli daraja ham deb ataladi. Bundan oldin egallagan bilimlar asosida o'zlashtirilishi lozim, bo'lgan va mustaqil bilim olishlari kerak bo'lgan evristik faoliyat vujudga keltiriladi.

4. Ijodiy daraja – bu faoliyat baholashga tegishli bo'lib, bunda talaba egallagan bilimlar asosida yangi axborot izlab topadi va yangi faoliyat yo'nalishlarida ijld qiladi.

O'qituvchi dars jarayonida bu qayd etilganlarni amalga oshirish davomida talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga ularda kasbiy sifatlarni hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi.

Buning uchun fanlarni o'qitishda “Muloqot – nazorat darsi”, “Suhbat”, “Viktorina”, “Didaktik o'yinlar”, “Musobaqalashuv”, “Aqliy hujum”, “Texnik hujum”, “Kim yaxshi javob beradi” kabi kasbiy o'yinlardan foydalanilsa ta'limda katta samaralarni qo'lga kiritish mumkin.

2. To'rtinchi sinfda tenglamalar tuzib echiladigan masalalarni YAPT asosida o'tish.

Masalalarni tenglamalar usuli bilan echib ham shu maqsadlarni ko'zda tutadi. Masalalarni tenglamalar usuli bilan echish masalasining mazmunini o'zlashtirishga, uni puxta taxlil qilishga yordam beradi.

O'qituvchilar berilgan va izlanayotgan miqdorlar qaysi amalning qanday komponentlarning ekanligini aniqlashni o'rganiladi.

Dastlabki vaqtlarda o'quvchilar ma'nosi bo'yicha tenglamalar tuzadilar, tuzilgan tenglama bo'yicha amalning komponentlari nomlarini aniqlaydilar, amalning qaysi komponentlari noma'lum, qaysi ma'lum ekanligini aniqlaydilar. Dastlabki vaqtlarda masalaning qisqa yozuvida amallarning komponentlari va natijasi nomlarini yozib qo'yish foydali bo'ladi, bu esa bolalarni masalaga uning matematik tuzilishi nuqtai nazaridan qarashlariga yordam beradi.

Tenglama bilan echiladigan dastlabki masalalar bunday ko'rinishda beriladi: “Agar o'ylangan songa 278 ni, 450 ni hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?”

Masalani tahlil qilib, uning qisqa yozuvini tuzamiz.

Masalada sonlar ustida qanday amal bajariladi?

(Qo'shish amali) “+” belgisi qo'yiladi.

- Nechta son qo'shilmoqda (2 ta son)?
- Birinchi son qanday (U noma'lum, uni o'ylagan)?

Noma'lum sonni qanday belgilaymiz [x]? “+” bu belgidan chap tomonga kartochni qo'yiladi.

Ikkinchi son qanday (278)? “+” o'ng tomonga kartochni qo'yiladi.

- Hosil bo'ladi so'zini qanday belgi bilan belgilash kerak. (“=” belgisi bilan)? 278 dan so'ng qo'yiladi.
- Necha hosil bo'ladi. (450?) 450 kartochni qo'yamiz.
- Tuzilgan ifodaga diqqat bilan qarang, u qanday ataladi (Tenglama)? Bu tenglama ekanligini isbotlang (ifoda “=” belgisi va x bor).

Qo'shishda son qanday ataladi.(Birinchi qo'shiluvchi II qo'shiluvchi)? O'qituvchi sonlarning ustida komponentlarning nomlari yozilgan kartochkalarining o'rgatib qo'yadi.

- Qo'shish natijasi qanday ataladi. (Yig'indi)?

Katakli taxtachada bunday yozuv hosil bo'ladi:

I X II Qo'shiluvchi III Yig'indi.

X qo'shiluvchi + 278 = 450

- Nima noma'lum? Uni qanday topish mumkin?

Yozuvi: $x = 450 - 278$

$$x = 450 - 278$$

$$x = 172$$

Javobi: O'ylangan son 172.

Endi masalani tenglamalar usuli bilan echishda uncha katta bo'lmagan sonli syujetli masalalardan foydalanish mumkin.

Masala: "Dilbar 3 ta chiziqli va bir nechta katakli daftar sotib oldi. U hammasi bo'lib 7 ta daftar sotib oldi. Dilbar nechta katakli daftar sotib olgan?"

Qisqa sharti: katakli – 3 ta daftar

chiziqli – x ta daftar

hammasi bo'lib 7 ta daftar

Masalaning mazmuniga ko'ra $3+x=7$ tenglama tuziladi. So'ngra amal bo'yicha tenglamada birinchi qo'shiluvchi (3) va yig'indi (7) ma'lum ekanligi, noma'lum esa 2 qo'shiluvchi ekanligi aniqlanadi. Komponentlarning nomlarini o'qituvchi masalaning qisqa yozuvi yoniga yozadi va ushbu ko'rinishga keladi.

Katakli 3 ta daftar – 1 ta qo'shiluvchi

Chiziqli x ta daftar – 2 ta qo'shiluvchi

Hammasi bo'lib – 7 ta daftar

Tuzilgan tenglama noma'lum qo'shiluvchini topish o'quvi asosida echiladi, echim masalaning ma'nosi bo'yicha tekshiriladiva javobi yoziladi.

Bu tenglamani o'qing. (Noma'lum sonni 4 ga bo'linadi va 7 hosil qilinadi. Noma'lum son nimaga teng? So'ngra o'quvchilar x ni topadilar, javobni tekshiradilar va yozadilar).

SHunday qilib o'quvchilar masalaning mazmuni ustida ishlash vaqtidayoq, uni odatdagi tilimizdan matematika tilimizga o'tkazadilar. Bu tenglamalar tuzishga yordam beradi.

Masala: Karima guldona'larga gul soldi. Har bir guldonda nechtdan gul bor?

O'quvchilar yordamida doskada xonali rasm chiziladi yoki guldona'l va gullar maketlari qo'yiladi.

Suxbat o'tkaziladi:

- Bizning masalamizning qisqa yozuvini matematika tilida qanday o'qish mumkin (x ta guldan 3 marta olishdi 18 hosil bo'ldi)?

$$\left. \begin{array}{l} X \\ X \\ X \end{array} \right\} 18 \text{ ta atir gul}$$

- Bu gap bo'yicha masala tuzing $x \cdot 3 = 18$
- x , 3, 18 qanday ataladi [I ko'paytuvchi (x), II ko'paytuvchi (3), III ko'paytma (18)].
- Noma'lum ko'paytuvchini qanday topish mumkin? $x = 18 : 3$ $x = 6$
Echimni va javobni yozing.

Qisqa yozuvi bo'yicha masala tuzish foydalidir. Nechtadan – 3 ta markadan ko'paytuvchi. Hammasi bo'lib 15 ta marka ko'paytma. Bu yozuv bo'yicha bolalar masala tuzadilar: “Bola albomning bir necha varag'iga 3 tadan marka yopishtiradi. Hammasi bo'lib, 15 ta marka yopishtirdi. Bola albomning necha keragini ishlatdi”

Suxbatdan so'ng $3 \cdot x = 15$ tenglama tuziladi va uni echiladi.

Shulardan o'xshash masalalarda noma'lum bo'luvchini shunga o'xshash topiladi.

1. Bir necha bola mehnat darsida 24 ta bayroqcha tayyorlashdi. Har bir bola 4 tadan bayroqcha yasashdi. Bayroqchalarni nechta bola yasashdi.
2. 24 ta bayroqchani 6 ta bola baravardan yasashdi. Har bir bola nechtadan bayroqcha yasagan?
3. Bir necha bayroqchani 6 ta bola yasadi. Har bir bola 4 tadan bayroqcha yasadi. Bolalar hammasi bo'lib nechta bayroqcha yasashdi.

Noma'lum bo'linuvchini va noma'lum bo'luvchini topishda bolalar ko'paytirish bilan bo'lish orasidagi ikki tur bo'lish orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtiradilar, ularni bo'lish natijalarini tekshirishga tadbiiq etadilar, masalalarni tenglamalar usuli bilan echishni o'rganadilar.

3. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tilgan bir soatlik dars ishlanmasi

Mavzu: Bir son ikkinchisidan necha marta ortiq yoki kamligini qanday bilish mumkinligini konkret misollarda ko'rsatish. O'rganilgan turdagi masalalar.

I. O'tilganlarni takrorlash. Frontal so'rash.

1. 18 sonini 9 ta kamaytiring va hosil bo'lgan sonni 3 ga ko'paytiring.
2. 1 sonini 2 ga ko'paytiring va hosil bo'lgan sonni 7 ta orttiring.
3. 4 va 7 ning ko'paytmasi 18 ta orttiring.
4. 40 soni 5 va 7 ning ko'paytmasidan qancha ortiq?

II. Yangi material ustida ishlash.

1. Mashqni bajarishga tayyorgarlik sifatida chapga 3 ta doiracha, o'ngga undan 4 marta ko'p doiracha qo'y, "4 marta ko'p" nima degani? (3 ta doirachadan 4 marta degani). Chapdagi doirachalar soni haqida nima deyish mumkin? (Ular o'ngdagilar 4 marta kam).
2. Darsliklardagi shu mavzuga doir mashqlarni bajaring. (15 tiyinda 3 tiyinlikdan nechta borligini qanday bilish mumkin? yuqori simdagi soqqalar necha marta kamligini qanday bilish mumkin? va xokazo).
3. Mashqni bajarib, o'quvchilar tushuntiradi: kvadratlar doiralardan necha marta ko'pligini bilish uchun 8 da 2 dan nechta borligini bilish kerak, buning uchun $8:2=4$. demak, kvadratlar doiralardan 4 marta ko'p, doiralar esa kvadratlardan 4 marta kam.

Masalaning echilishi va javobi yoziladi: $8:2=4$. Javob: kvadratlar doiralardan 4 marta ko'p, doiralar kvadratlardan 4 marta kam.

III. O'tilgan material ustida ishlash.

1. Masalani o'qituvchi rahbarligida echish. Masalani dilda o'qing. Masalaning shartini o'qing. "Qolgan bolalar"ni qanday tushinasiz? Masalaning savolini o'qing. Masalaning savoliga javob berish uchun qanday ta'limotlar kerak? (Komandalar nechta ularda hammasi bo'lib nechta o'yinchi bor?) Bu ifodalar orasidan masala echishni toping.

$10-2:2$; $10:2-2$; $(10-2):2$ Ifodada nechta amal bor? Birinchi amal bilan nimani bildingiz? Ifodani va uning natijasini yozing. Masalaning javobini yozing.

2. Echimga ko'ra masala tuzing $30:6+30$ O'quvchilar masala tuzishadi, o'qituvchi esa ularni qisqacha doskaga yozadi. Masalan,

1. Pomidor-30 kg.

2. Bodring-? Marta kam

3. Piyozi-30 kg

4. Sabzi - ? marta kam.

Masala nimasi bilan o'xshash?

(Echilishi bir xil).

Masala. Omborda sabzavot saqlanmoqda. Ombordan 10120 kg sabzavot olib keltirilgandan keyin unda olib ketilganidan 5480 kg ortiq sabzavot qoldi. Omborda necha kg sabzavot bo'lgan?

Masala shartining qisqacha yozilishi:

Bor edi - ?

Olib ketildi – 10120 kg

Qoldi – $10120+5480$

Oldingi masalaning echilishidagidek muloxaza yuritib o'quvchilar $x - 10120 + 5480$ tenglamani yoki uning variantlari bo'lgan $x - (10120 + 5480) = 10120$ $x = 10120 + (10120 + 5480)$ tenglamani hosil qiladilar.

Tenglamalardan biri echilishining yozilishi o'quvchi daftarida bunday kqrinishda bo'ladi.

$$x - 10120 = 10120 + 5480$$

$$x = 15600 + 10120$$

$$x = 25720$$

Javob: Omborda 5480 kg sabzavot bo'lgan.

Masala. Maktab bog'ida har qatorda 12 tupdan 4 qator daraxt bor edi. Bahorda yana bir necha tup daraxt o'tkazildi va daraxtlar 96 ta bo'ldi. Bahorda necha tup daraxt o'tkazilan? O'quvchilar masalani analiz qilishadi va uni qisqa shartini yozishadi.

Bor edi – har qatorda 12 tupdan 4 qator

O'tkazishdi - ?

Bo'ldi – 96 tup daraxt.

Tenglamani tuzishda taxminan bunday mulohazalar yuritiladi: Bahorda ekilgan daraxtlarning izlanayotgan sonini “x” bilan belgilaymiz.

Dastlab, bog'dagi bor daraxtlar sonini ifodalaymiz. $12 \cdot 4$. o'tkazilgan daraxtlarning umumiy sonini belgilaymiz:

$$12 \cdot 4 + x.$$

Hamma daraxtlar 96 tup bo'lgani ma'lum. Tenglama tuzamiz. $12 \cdot 4 + x = 96$.

O'quvchilar daftarida bunday yozuv bajarilishi kerak:

$x(d)$ – bahorda o'tkazilgan daraxtlar.

$12 \cdot 4(d)$ – bog'dagi bor daraxtlar.

$12 \cdot 4 + x(d)$ – bog'dagi daraxtlar shuncha bo'ldi.

$$12 \cdot 4 + x = 96$$

$$48 + x = 96$$

$$x = 96 - 48$$

$$x = 48$$

Javob: bahorda 48 tup daraxt o'tkazilgan.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda matematika kursini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish shu fanda o'quvchilar tomonidan hozirgi kun talablari darajasida o'zlashtirishni ta'minlaydi

Dars o'tish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan xolda boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish, o'ragatish va ularda bilim ko'nikmalarni xosil qilaolishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik mavzularni singdirishda eng qulay usullardan biri qiziqarli didaktik o'yinlar o'tkazishdir. O'yin jarayonida o'quvchilarda matematika faniga qiziqish, ijobiy fikrlash, ortib boradi.

Bunday o'quvchilarda kelajakda yaxshi xisobchi, ishbilarmon, xayotni to'g'ri tasavvur qiluvchilar yetishib chiqishi mumkin.

- Zamonaviy pedagog ham pedagog, ham psixolog bo'lishi kerak;
- Ta'lim jarayonida o'qitishning samara beruvchi zamonaviy usul va vositalari bilan qurollangan bo'lishi kerak;
- Hamisha dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishi kerak;
- Avvalo o'qituvchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak;
- Madaniyatli nutq soxibi bo'lishi kerak;
- Ijodkor va tashabbuskor bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’limi standart iva o’quv dasturi.”
2. Ta’lim to’g’risida O’zbekiston respublikasining qonuni «Halq ta’limi jurnali.1992 yil 10-12 solnli
- 3.B.Toshmurodov “Boshlangich sinflar matematikasi” 1978 yil
- 4.M.I.Moro va boshkalar “Matematika obucheniya matematika”
- 5.B.A.Movlonova, L.Sh.Levenberg, “To’rtinchi sinfda matematika o’kitish” Toshkent. 1979 yil.
- 6.Matematika.4-sinf uchun darslik.
- 7.Matematikadan o’qituvchilar uchun qo’llanma. 4-sinf uchun. Toshkent.
- 8.Matematika I sinf uchun darslik. T.: 2010 yil
- 9.Matematika II sinf uchun darslik. T.: 2010 yil
- 10.Matematika III sinf uchun darslik. T.: 2010 yil
- 11.Matematika IV sinf uchun darslik. T.: 2010 yil